


XUSUSIY TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING

O'RNI



Ilmiy rahbar: Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasи dotsenti

Abdumо‘minov Axrorjon Axatjonovich

Soyibjonov Sanjarbek

Andijon davlat texnika instituti

Iqtisodiyot yo‘nalishi 4-kurs talabasi

E-mail: sanjarbeksoyibjonov2003@gmail.com

Tel: +998(90) 220 03 86

Annotatsiya. Ushbu maqolada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli va ta’siri tahlil qilinadi. Banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar, jumladan, kreditlar, investitsiya imkoniyatlari va lizing xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashdagi muhim omillar sifatida ko’rib chiqiladi. Maqolada foiz stavkalari, kredit olish shartlari, moliyaviy mahsulotlarning mayjudligi va bank xizmatlarining tadbirkorlik muhitiga ta’siri o’rganiladi. Mahalliy va xalqaro bank tizimlari tajribasi misollar orqali tahlil qilinib, banklarning innovatsiyalarni rag’batlantirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo’shishdagi ahamiyati ko’rsatiladi.

Kalit so‘zlar: xususiy tadbirkorlik, bank tizimi, kreditlash, moliyaviy xizmatlar, Hamkorbank, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini oshirishda xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida kichik va o‘rta biznes subyektlari innovatsion yondashuvlar orqali bozorga moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ushbu sohaning taraqqiyotida moliyaviy institutlar, xususan tijorat banklarining roli beqiyosdir [1]. Banklar nafaqat kredit mablag‘lari bilan, balki tadbirkorlarga ko’rsatiladigan maslahat

xizmatlari, investitsion ko‘mak, kafolatlash va moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali ham faol yordam berishmoqda.

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida xususiy tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda [4]. U aholining bandligini ta’minlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va jamiyatda raqobat muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, mazkur sohaning barqaror rivojlanishida moliyaviy vositachilar - ya’ni tijorat banklari faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Bank muassasalari iqtisodiyotda pul mablag‘larini qayta taqsimlash, tadbirkorlik subyektlarini zarur moliyaviy resurslar bilan ta’minlash va ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Xususan, banklar kreditlar ajratish orqali kichik va o‘rta biznesning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tadbirkorlarning yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishida, aylanma mablag‘larini to‘ldirishida va texnologik modernizatsiya jarayonida katta yordam beradi. Shuningdek, banklar mikrobiznesni moliyalashtirish, imtiyozli kreditlar taqdim etish, garovsiz moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish orqali yangi bosqichdagi tadbirkorlarni ham rag‘batlantiradi. Ayrim hollarda, banklar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda tadbirkorlar uchun qulay kredit liniyalarini joriy etmoqda. Misol tariqasida, Hamkorbank, Mikrokreditbank va Agrobank faoliyatini keltirish mumkin. Ushbu banklar yoshlar, ayollar va qishloq joylardagi aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirop etmoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklari nafaqat moliyaviy xizmatlar, balki maslahat, konsalting va loyihalashtirish bo‘yicha ko‘mak ham ko‘rsatmoqda [5]. Bu esa tadbirkorlarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy biznes yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, banklar faoliyatida ba’zi to‘siqlar ham mavjud: yuqori foiz stavkalari, garov talablari va kredit olish jarayonining murakkabligi ayrim tadbirkorlar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, moliyaviy xizmatlarning soddalashtirilgan va innovatsion shakllarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlik - bu fuqaro yoki shaxslarning o‘z mablag’i, tashabbusi va javobgarligi asosida foyda olish maqsadida amalga oshiradigan iqtisodiy faoliyatidir. Bu soha quyidagi jihatlar orqali iqtisodiyotda muhim o‘rin egallaydi:

Ish o‘rinlari yaratadi: Xususiy sektor ishsizlikka qarshi kurashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki bozorni to‘ldiradi: Mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishi ortib, importga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi.

Soliq tushumlari ortadi: Davlat byudjetiga to‘lanadigan soliq va yig’imlar miqdori ko‘payadi.

Raqobat muhitini kuchaytiradi: Innovatsion mahsulotlar va xizmatlar soni ortadi. Bank tizimi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni. Banklar iqtisodiy tizimning asosiy bo‘g’inlaridan biri bo‘lib, moliyaviy resurslarning oqimini tartibga soladi. Tijorat banklari quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

Kreditlash: Yuridik va jismoniy shaxslarga maqsadli kreditlar ajratadi.

To‘lov xizmatlari: Hisob-kitob va pul o‘tkazmalari bilan shug’ullanadi.

Jamg’armalarni jalb qilish: Depozitlar orqali kapital yig’adi.

Investitsion faoliyat: Korxonalarning rivojlanish loyihalarini moliyalashtiradi. Shunday qilib, banklar moliyaviy vositachilik funksiyasini bajarib, xususiy tadbirkorlikning o‘sishiga kuchli zamin yaratadi.

Tadbirkorlar, ayniqsa faoliyatini endi boshlayotganlar, odatda o‘z mablag’lariga ega bo‘lmaydi. Banklar bu holatda startap kreditlar, imtiyozli kreditlar va mikrokreditlar orqali yordam ko‘rsatadi. Masalan:

Mikrokreditbank 2024-yilda 50 mingdan ortiq xotin-qiz va yosh tadbirkorga imtiyozli kreditlar ajratgan [2]. Agrobank tomonidan 2023-yilda fermer xo‘jaliklari uchun ajratilgan kreditlar qiymati 3,2 trillion so‘mni tashkil etdi.

Banklar tadbirkorlarga nafaqat pul mablag’lari, balki biznes reja tuzish, moliyaviy hisobot yuritish, qonunchilikdagi o‘zgarishlar haqida maslahatlar ham beradi. Bu xizmatlar ayniqsa yangi bosqichdagi bizneslar uchun nihoyatda muhim. Banklar tomonidan tashkil etilgan seminar, trening va vebinarlar tadbirkorlarning moliyaviy

bilimi va xabardorligini oshiradi. Bu esa risklarni to‘g‘ri baholash va resurslardan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

“Hamkorbank” – xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlaydigan yirik tijorat banklaridan biridir [3]. Bank quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

“StartUp” dasturi: 2023-yilda “Hamkorbank” tomonidan boshlang‘ich tadbirkorlarga 1,5 mingdan ortiq kredit ajratilgan.

“Ayollar biznesi” dasturi: Ayol tadbirkorlarga ajratilgan imtiyozli kreditlar orqali 3500 nafar ayol o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan.

Kichik biznes markazlari: Har bir filialda faoliyat yuritadigan “Tadbirkorlik markazi” orqali 25 mingdan ortiq mijozga maslahat xizmatlari ko‘rsatildi. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, banklar faqat moliyaviy institut sifatida emas, balki rivojlanishga xizmat qiluvchi strategik hamkor sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda banklar duch keladigan asosiy muammolar: kreditlar ta‘minotining yetishmasligi, ko‘plab kichik biznes vakillarida garov mulki yo‘q.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning o‘rni beqiyosdir. Banklari tadbirkorlarga moliyaviy resurslar taqdim etish, investitsiya loyihamalarini moliyalashtirish va biznes faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo‘lgan kreditlarni berish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Ular shuningdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun maslahat xizmatlari va bozor tahlilini taqdim etib, tadbirkorlarning muvaffaqiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Banklarning innovatsion g‘oyalarga e’tibor berishi va yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihamarni moliyalashtirishi, xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, banklar iqtisodiy muhitni yaxshilash va tadbirkorlik sharoitlarini rivojlantirishda ishtirok etadilar, bu esa umumiyl iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Natijada, banklarining faoliyati xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda nafaqat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga ham xizmat qiladi. Ularning samarali ishlashi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta‘minlab, jamiyatning farovonligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil.
2. Mikrokreditbank rasmiy sayti – www.mkb.uz
3. Hamkorbank faoliyati to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar – www.hamkorbank.uz
4. Soliev S., Karimov R. "Tadbirkorlik asoslari". – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2021.
5. Umarov B. "Bank ishi nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.